

TALABALARDA VATAN RAVNAQI G'OYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Abduvaitova Durdona Baxriddin qizi ¹

¹ Nordik Xalqaro Universiteti magistri

Abduvaitovadurdona062@gmail.com

<https://orcid.org/0009000319672624>

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:07.05.2025

Revised: 08.05.2025

Accepted:09.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

Vatan ravnaqi, milliy g'oya, pedagogik yondashuv, mustaqil dunyoqarash, ta'lim texnologiyalari, yosh avlod tarbiyasi, vatanparvarlik, xalqaro tajriba, ma'rifiy faoliyat.

Mazkur maqolada talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish jarayonida pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va ularni samarali qo'llash masalalari tahlil qilinadi. Milliy g'oya, ma'naviy tarbiya va zamonaviy ta'lim metodlari orqali yosh avlodni Vatan ravnaqi yo'lida yetuk va masuliyatli shaxs sifatida shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari o'rganiladi. Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar, talabalarning mustaqil dunyo qarashini rivojlantirish usullari hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalarga asoslangan holda, talabalarning Vatanparvarlik hissini mustahkamlashdagi muhim omoillar yaratilgan.

KIRISH. Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni Vatanga sadoqatli, ma'suliyatli va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish orqali talabalarda ijtimoiy ongni rivojlantirish va ularni kelajak qurilishiga tayyorlash muhim pedagogik yondashuvlar talab etadi. Ushbu maqola talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirish uchun samarali pedagogik usullar va tamoyillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, an'anaviy ta'lim usullari bilan cheklanib qolish bugungi talabaning dunyoqarashi va ehtiyojlariga to'liq javob bera

olmaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar – interaktiv metodlar, muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta’lim, motivatsion yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodikasi orqali talabalarda Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shish g‘oyasi izchil shakllanadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, vatanparvarlik ruhidagi mavzularni o‘qitishda real hayotiy misollar, tarixiy shaxslar faoliyati, milliy qadriyatlar asosida tahlil olib borish, talabalarda ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatini uyg‘otadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi, muloqot madaniyatini rivojlantirish va ochiq fikr almashishga imkon beruvchi muhit yaratish pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Shu asosda aytish mumkinki, Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirishda faqat bilim berish emas, balki talabani ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, faol hayotiy pozitsiyaga ega shaxs sifatida tarbiyalash ham muhimdir. Bu esa, pedagogning kasbiy mahorati, metodik yondashuvlari va talaba bilan ijtimoiy-axloqiy muloqot olib borish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqat ilmiy bilimlar bilan cheklanib qolish, talabalarning shaxsiy va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar zarur bo‘lmoqda. Oliy ta’limda yoshlarni milliy g‘oyalar asosida tarbiyalash, ularni Vatan ravnaqi g‘oyasi bilan tanishtirish, ularning ongida o‘z xalqiga va Vataniga bo‘lgan sadoqatni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik yondashuvlar yordamida talabalarda vatanparvarlikni shakllantirish, ularni milliy qadriyatlar va tarixiy merosga hurmat bilan qarashga undaydi. Shu maqsadda o‘qituvchilarning metodik yondashuvlari, o‘quv dasturlari va interaktiv o‘qitish usullari yordamida talabalar qalbida Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shish g‘oyasi mustahkamlanadi.

Mazkur tadqiqotda, talabalarda Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirishda samarali pedagogik yondashuvlar va ularning ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik metodlarni ishlab chiqish, talabalarda fuqarolik ongini rivojlantirish va milliy g‘oyalarni talabalarga etkazishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

1.Sharipov Shavkat . (2020). ” Milliy g‘oya: Asosiy tushunchalar va tamoyillar” Sharipov, milliy g‘oya va uning pedagogik metodlarini talabalarga Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirishda qo‘llashning ahamiyatini takidlaydi.

2.Mardonov Shukurullo.(2021). “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Mardonov, Talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar va metodlarning o‘rni haqida yozadi.

3.Xo'jayev Ismatullo. (2018) “Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limdagi ro'li” Xo'jayev pedagogik inovatsiyalar va interaktiv metodlarning talabalarda Vatanparvarlikni shakllantirishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

4.Omonov Qodir. (2023) “Pedagogik texnologiyalar va pedagogikmahorat” Ta'limda pedagogik yondashuvlar , ma'naviy tarbiya va metodlarning muhimligi.

5.Smits J.(2017) “Patrimonism and National Identity in Education” Smith, ta'limda Vatanparvarlik va milliy g'oyani shakllantirishni o'rganadi, talabalarda milliy qadriyatlarni anglatishda pedagogik metodlarni ko'rsatadi.

METODLAR.Maqolada quydagi tadqiqod usullari qo'llaniladi:

1. Nazariy tahlil: pedagogik va psixologik adabiyotlar, milliy g'oya va mafkura bo'yicha ilmiy tadqiqodlar o'rganildi.

2.Empirik tadqiqod: talabalar o'rtasida so'rovnoma va intervyular o'tkazilib, ularning Vatan ravnaqi haqidagi qarashlari tahlil qilindi.

3.Pedagogik tajriba: talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishga qaratilgan maxsus dars va treninglar tashkil qilindi.

NATIJALAR

1.Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi:

- Talabalarda vatanparvarlik hissini kuchaytirish uchun dars jarayonida milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar faoliyati va yurt rivojiga qo'shilgan hissalar yoritildi.

2.Pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi:

- Talabalarining mustaqil fikirlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ularga yurt ravnaqi uchun masuliyat hissi ortgani kuzatildi.

3.Pedagogik taxlil asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Ta'lim jarayonida milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish zarur.
- Vatanparvarlikni shakllantirish bo'yicha maxsus fan yoki modullar joriy qilish taklif etiladi.

- Ijtimoiy loyihalar talabalar faol ishtirok etish vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

MUHOKAMA

Maqolada talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqod natijalariga ko'ra, milliy g'oya va ma'naviy tarbiya yosh avlodni Vatan ravnaqi yo'lida mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda muhim o'rin turadi. Zamonaviy ta'lim metodlari, inovatsion pedagogik texnologiyalar va mustaqil dunyoqarashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar

talabalarning ma'naviy axloqiy komolotini ta'minlashda samarali ekanligi kuzatildi. Ilmiy adabiyodlar tahlil qilinayotganda, O'zbekiston pedagogikasidagi milliy g'oya, ma'naviy tarbiya va pedagogik texnologiyalarning roli ko'rsatilgan. Omonov (2013), Mardonov (2021) va Sharipov (2020) kabi olimlarning ishlari bu sohalarda asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Ayniqsa, talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakillantirishda inovatsion pedagogik texnologiyalarni, masalan, interaktiv ta'lim metodlarini, onlayn ta'lim resurslarini va pedagogik o'yinlarni keng qo'llash muhimdir. Biroq, bunday yondashuvlar bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Jumladan, o'qituvchilarning innovatsion metodlarga bo'lgan tayyorgarligi va ularning amaliyotga joriy etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar bu jarayonni kechiktirmoqda.

XULOSA: Talabalarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakillantirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun interaktiv va faol ta'lim metodlaridan foydalanish, shuningdek, motivatsion va amaliy yondashuvlarni qo'llash zarur. Natijalar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri pedagogik yondashuvlar yordamida talabalarni nafaqat bilimli, balki Vatan ravnaqi uchun ma'suliyatli shaxs sifatida tarbiyalash mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I.A. . "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. Toshkent:O'zbekiston". (1995) www.ziynet.uz
2. Sharipov Sh." Milliy g'oya :asosiy tushunchalar va tamoyillar". Toshkent; Ma'naviyat.(2016) www.kitobxon.uz
3. Jalolov J ." Pedagogik texnologiyalar va innivatsion texnologiyalari". Toshkent; O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.(2020) www.ziynet.uz
4. Mardonov SH." Pedagogika nazaryasi va tarixi". O'quv qo'llanma .Toshkent (2021)www.kitobxon.uz
5. Husanov O." Talabalarda fuqorolik ongini rivojlantirish masalalari". Toshkent ; Fan va texnologiyalar. (2019) www.natlib.uz
6. Vygotskiy, L.S. " Mind in Society ; The Developpment of Higher Psychological Processes. "Cambridge: Harvard University Press. (1978)www.google.com/books
7. Dewey, J " Democracy and Education." New York: Macmillan. (1916)www.gutenberg.org
8. Adizova N. Zamonaviy ta'lim tizimida milliy tarbiyaning o'rni . Toshkent : Ma'naviyat. (2021)www.ziynet.uz
9. Klimov E.A ."Professional'noye Samoopredeleniye lichnosti". Moskva; Akademiya. (2003) www.litres.ru
10. Paulo F . " Pedagogy of the Oppressed". New York: continium.(1970) www.google.com/books